



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil 6-son

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR
TARIXI

- 5 HAYITOV SHERZOD
RAXMATULLAYEVICH**
Huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari:
nazariy-huquqiy tahlil

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 MADIYEV FAXRIDDIN XOSHIM O'G'LI**
Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasi
va uning huquqiy tabiati
- 29 ILXOMBEKOV JASURBEK ILXOMBEK O'G'LI**
Internet tarmog'idan axborot olish jarayonini
huquqiy jihatdan tartibga solish va amalga
oshirishda vujudga keladigan muammolar
- 38 КУАТБЕК ГУЛНАР КУАТБЕКОВНА**
Правовые вопросы ведения интернет-
ресурсов представительных органов
местной власти в Узбекистане и Казахстане
- 52 AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**
Konstitutsionalizmning paydo bo'lishi va uning
rivojlanish asoslari

12.00.04 – FUQAROLIK
PROTSESSUAL HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI
VA MEDIATSIYA

- 60 XAKBERDIYEV ABDUMURAD
ABDUSAIDOVICH**
Hakamlik sudining hal qiluv qarori tushunchasi
va huquqiy ahamiyati
- 69 КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА**
Функции нотариата в современном
правовом государстве

- 77 JALILOVA SARDORA ABDUROZIQ QIZI**
Milliy qonun hujjatlarida mediatsiya institutining umumiy tavsifi hamda ushbu soha doirasida aniqlangan muammolar

**12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ**

- 85 MAHBUBA XAMIDOVA ALIJANOVNA**
Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yechimi kutilayotgan chora-tadbirlar

**12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI**

- 93 MAXMADIYAROVA XUMORA
O'KTAMOVNA**
Sud muhokamasida taraflarning protsessual imkoniyatlari tengligini ta'minlash tortishuv prinsipining muhim sharti sifatida

**12.00.12 – KORRUPSIYA
MUAMMOLARI**

- 100 NOROV ILKHOM IBROXIMOVICH**
Exploring dimensions of anti-corruption agencies (in the example of Central Asia)

**13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)**

- 112 МАТЕНОВ РАШИД БЕКИМБЕТОВИЧ**
О роли новых педагогических технологий в преподавании языковых дисциплин в юридическом вузе

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./LMWW5558>
UDC: 342.56(045)(575.1)

KONSTITUTIONALIZMNING PAYDO BO'LISHI VA UNING RIVOJLANISH ASOSLARI

Amirov Sanjar Ilyos o'g'li,

Qashqadaryo viloyati

yuridik texnikumi o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-1820-5927

e-mail: sanjaramirov19@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada konstitutsionalizmning nazariyalari va tushunchalari, shuningdek, butun dunyodagi konstitutsiyaviy boshqaruvning xususiyatlari hamda amaliyoti ilmiy nazariy jihatdan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, jahon mamlakatlarining hozirgi demokratik erkinliklarga erishish bosqichigacha bo'lgan tarixiy jarayonda konstitutsionalizmning tutgan o'rne, uning davlat hokimiyatining tashkil etilishidagi tayanch tushuncha bo'lgani tadqiq etiladi. Hozirgi globallashtan dunyoda davlat va huquqning tashkil etilishi masalalari nuqtayi nazaridan konstitutsionalizm har qanday rivojlangan mamlakatlarning poydevori va asosi ekanini tushunib olishimiz mumkin. Maqolada konstitutsionalizm insoniyatning tadrijiy rivojlanishida g'oyatda katta rol o'ynagani, hozirgi insonning asosiy huquq va erkinliklari paydo bo'lishida uning tutgan o'rne tayanch tushunchalar va antik davr faylasuflarining yondashuvlari asosida ochib berilgan. Bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lgan davlat va huquqning vujudga kelishidagi konstitutsionalizm an'analari va uning bu jarayonda asosiy tushuncha ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, insoniyat paydo bo'lganidan to hozirgi kunga qadar u orzu qilgan demokratik jamiyatga o'tishda konstitutsionalizm va shunga o'xshash nazariyalar nisbati solishtirilib, ilmiy jihatdan o'rganib chiqilgan. Maqolada shaxs, davlat, jamiyat tushunchalari va ularning konstitutsiya hamda qonun oldidagi huquq va majburiyatlari negizida bu uchta subyektning eng ideal formasi – konstitutsionalizmning asosini tashkil etishi mavjud nazariyalar va metodlar orqali tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: konstitutsionalizm, xalqaro hamjamiyat, tarixiy tajriba, aralash boshqaruv, ommaviy kelishuv.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ КОНСТИТУЦИОНАЛИЗМА И ОСНОВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ

Амиров Санжар Илёс угли,

преподаватель Кашкадарьинского областного
юридического техникума

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения рассматриваются классические теории и концепции конституционализма, а также особенности и практика конституционного правления во всём мире. Также изучается роль конституционализма в историческом процессе стран мира вплоть до этапа достижения демократических свобод, указывается о его роли как базовой концепции в организации государственной власти. В современном глобализированном мире конституционализм является фундаментом и основой любой развитой страны с точки зрения организации государства и права. Выявлено, что конституционализм сыграл чрезвычайно важную роль в постепенном развитии человечества и возникновении основных прав и свобод человека, основанных на

основных концепциях и подходах античных философов. Традиции конституционализма в создании государства и права являются одной из наиболее актуальных проблем современности, его организация и основная концепция в этом процессе основаны на глубоких размышлениях и научных соображениях. Было научно сопоставлено и изучено соотношение конституционализма и подобных ему теорий, созданных человеческим разумом при переходе к демократическому обществу, о котором оно мечтало от зарождения человечества до наших дней. На основе представлений о личности, государстве, обществе, их правах и обязанностях перед конституцией и законом наиболее идеальная форма этих трёх субъектов составляет основу конституционализма и интерпретируется через существующие теории и методы.

Ключевые слова: конституционализм, международное сообщество, исторический опыт, смешанное управление, общественный консенсус.

THE EMERGENCE OF CONSTITUTIONALISM AND THE FUNDAMENTALS OF ITS DEVELOPMENT

Amirov Sanjar Ilyos ugli,

Teacher of Law College of Kashkadarya Region

Abstract. In this article, the classic theories and classical concepts of constitutionalism, as well as the characteristics and practice of constitutional government in the whole world, are considered from a scientific theoretical point of view. Also, the role of constitutionalism in the historical process of the countries of the world up to the stage of achieving democratic freedoms and the fact that it was the basic concept in the organization of state power are studied. In today's globalized world, we can understand that constitutionalism is the foundation and basis of any developed country from the point of view of the organization of the state and law. It is revealed that constitutionalism played an extremely important role in the gradual development of humanity and in the emergence of basic human rights and freedoms based on the basic concepts and approaches of ancient philosophers. The traditions of constitutionalism in the creation of the state and law, which is one of the most urgent problems of today, and its organization and main concept in this process, are based on deep thoughts and scientific considerations. When familiarizing myself with the article, the proportion of constitutionalism and similar theories created by the human mind in the transition to the democratic society it dreamed of from the beginning of humanity to the present day has been scientifically compared and studied. Based on the concepts of person, state, and society and their rights and obligations before the constitution and the law, the most ideal form of these three subjects is the basis of constitutionalism. It is interpreted through existing theories and methods.

Keywords: constitutionalism, international community, historical experience, mixed management, public consensus.

Kirish

Dunyo mamlakatlarining hozirgi rivojlanish tendensiyalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, konstitutsionalizm an'analari davlat hokimiyatining tashkil etilishi va milliy konstitutsiyalarning asosiy negizi bo'lib xizmat qilishini bilib olishimiz mumkin. Bundan kelib chiqadiki, konstitutsionalizm va uning asosiy negizlari, paydo bo'lishi masalalari

umumiy tarixning hamda hozirgi zamonning eng ahamiyatli mavzularidan biri hisoblana-di. Davlat va huquqning vujudga kelishi si-yosatchilar uchun qanchalik muhim bo'lsa, konstitutsionalizm hamda uning asosiy ne-gizlari ham shunchalik barqaror bo'lgan ijti-moiy munosabatlardir. Hozirgi globallashgan dunyoda davlat funksiyalarini keng ko'lamda olib borish zarurati davlat boshqaruv shak-

llarini ham takomillashtirish masalasini bugungi kunning dolzarb masalasiga aylantirib qo'ydi.

Mana shunday ulkan sohadagi yangilik esa, albatta, konstitutsiya va konstitutsionalizmning milliy an'analari negizida amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi kunda xalqaro maydonda yuz berayotgan katta ixtiloflar, ularning oldini olish masalalari xalqaro hamjamiyat va siyosiy davlat tushunchasiga ega bo'lgan tuzilmalarning vakolatlarini, huquqiy statusini qaytadan qurish kabi murakkab vazifalarni keltirib chiqarmoqda. Mana shuni hisobga olgan holda, har qanday davlat va huquqqa aloqador bo'lgan o'zgarish va yangilanish jarayonlarini, albatta, konstitutsionalizm hamda uning umumiy prinsiplari asosida amalga oshirish lozim. Konstitutsionalizm va uning mohiyati demokratik davlatning tayanch ustuni hisoblanadi, degan doktrinadan kelib chiqib yondashadigan bo'lsak, bu sohani o'rganish, tadqiq qilish barcha zamon siyosatshunoslari hamda konstitutsiyashunos olimlarning diqqat markazida turganini ko'rishimiz mumkin.

Konstitutsionalizm mohiyatan hukumatning vakolatlari asosiy qonunlar to'plamidan kelib chiqadi va ular bilan cheklanadi, degan tamoyilni ishlab chiqadigan g'oyalar, munosabatlar va xatti-harakatlarning birikmasidir [1].

Material va metodlar

Tarixiy tajriba va amaliyotga chuqur singib ketgan konstitutsionalizm davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarni yuqori qonun belgilab beradigan chegara doirasida bo'ysundiruvchi murakkab tushunchani tavsiflaydi [2].

Konstitutsiya va konstitutsionalizmni talqin qilishning to'rtta umumiy usuli, afzalliklari, kamchiliklari teksualizm, originallik, fundamental tamoyillar va modernizm yoki instrumentalizm (jonli Konstitutsiya), yozma fikrlarning ahamiyati kabi metodlar hamda usullar yordamida aniqlanadi. Kons-

titutsionalizmni tahlil qilish uchun quyidagi ikki asosiy metoddan foydalanish maqsadga muvofiq:

birinchisi – originallik;

ikkinchisi – fundamental tamoyillar.

Originallik yoki originalizm – huquqiy matnlarni, shu jumladan, konstitutsiyaviy asarlarni, Konstitutsiya matnini sharhlash nazariyasidir. Originalistlarning fikricha, konstitutsiyaviy matnga u qonun bo'lgan paytdagidek asl ommaviy ma'no berilishi kerak.

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilish orqali konstitutsionalizmning asl variantlari hozirgi paytdagi milliy konstitutsiyalarga o'z ta'sirini o'tkazganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, dastlabki yaratilgan asarlar va ilmiy nazariyalar keyingi konstitutsiyalarning yaratilishida katta rol o'ynadi, shuning uchun ham dastlabki va keyingi konstitutsionalizm an'analari bir-biridan farq qilish barobarida bir-birini to'ldirib turadi. Shuning uchun bu nazariyaning asosi inkorni inkor etish qonuniga borib taqaladi. Bu jarayonni amaldagi konstitutsiyaning yangisiga o'zgartirilishida ko'rishimiz mumkin.

Fundamental tamoyillar metodi haqida gapiradigan bo'lsak, antik davrdan to hozirgi kunga qadar rivojlangan huquq ilmi va konstitutsionalizm an'analari huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari asosidagina amalga oshirilishi hamda rivojlanishini nazarda tutadi. Mana shu tayanch tamoyillar orqali konstitutsionalizmning haqiqiy buyukligini anglash mumkin. Asosiy tushunchalar mavjud bo'lgan va uning ahamiyati butun bir mamlakat boshqaruvi yoki davlat hokimiyatining tashkil etilish jarayoni, inson huquqlari va erkinliklariga daxldor bo'lgan asarlarga konstitutsionalizmning asosini belgilab berdi. Arastu (Aristotel)ning hamda hozirgi zamon mualliflarining fikrlari aynan mana shu tamoyillarni o'ziga singdirgan va konstitutsiya hamda konstitutsionalizmning tamal toshlarini ifodalab bergan.

Tadqiqot natijalari

Konstitutsiya va konstitutsionalizm haqidagi umumiy g'oya va qarashlar qadimgi yunonlar, ayniqsa, Arastuning tizimli, nazariy, me'yoriy va tavsifiy asarlarida paydo bo'lgan. Faylasuf o'zining "Siyosat", "Nikomax etikasi" ("Nikomax axloqi"), "Afina konstitutsiyasi" va boshqa asarlarida yunoncha konstitutsiya (*politeia*) so'zini turli ma'nolarda ishlatgan [3]. O'sha paytlarda mavjud bo'lgan yunon shahar koloniyalari boshqaruvidagi kamchiliklari va adolatsizliklar Arastuni yaxshi va yomon boshqariladigan shahar davlatlar kabi atamalarni ishlatishga majbur qilgan. Tarixiy va an'anaviy konstitutsionalizmning paydo bo'lishi ham aynan mana shu davrda boshlangan. Aristotelning "davlat boshqaruv shakllari" tasnifi konstitutsiyalarni yaxshi va yomon sifatida ajratishga mo'ljallangan edi. Yaxshi konstitutsiyalarda – monarxiya, aristokratiya va Arastu bir xil "*politeia*" atamasini qo'llagan aralash turdagi – bir kishi, bir nechta shaxslar yoki ko'pchilik butun polis manfaati uchun hukmronlik qiladi. Yomon konstitutsiyalar – tiraniya, oligarxiya va demokratiya ostida zolim, boy oligarxlar yoki kambag'al demos yoki xalq faqat o'z manfaatlarini ko'zlab hukmronlik qiladi [4].

Konstitutsionalizmning ikki an'anasi

Siyosiy konstitutsionalizm: aralash boshqaruvdan vakillik demokratiyasi sari

Aralash boshqaruv nazariyasi qadimgi tafakkur va siyosiy tizimlarni bir, bir necha yoki ko'pchilik hukmronligiga qarab tasniflashdan kelib chiqqan. Ushbu nazariyaga ko'ra, siyosatning uchta asosiy turi – monarxiya, aristokratiya va demokratiya mos ravishda tiraniya, oligarxiya va anarxiyaga aylanishi mumkin edi. Bu doktrina hokimiyatning bir shaxs yoki guruh qo'lida to'planishidan kelib chiqqan bo'lib, o'zboshimchalik bilan boshqaruvga yo'l qo'yib, uni suiiste'mol qilish vasvasasini keltirib chiqardi. Yechim har xil turlarni birlashtirish yoki aralashtirish orqali tiyib turish va mutanosiblikni ta'minlash edi. Buning zamirida ara-

lash boshqaruvdan siyosiy iroda orqali va-killik demokratiyasiga o'tish tendensiyalarini ko'rishimiz mumkin edi [5].

Huquqiy konstitutsionalizm: hokimiyatlarining bo'linishidan huquq va sud nazoratigacha

Fransiyaning 1789-yildagi Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasining 16-moddasiga ko'ra, "Huquqlar kafolati ta'minlanmagan yoki hokimiyatlar bo'linishi belgilanmagan har qanday jamiyatda konstitutsiya yo'q". Bugungi kunda ko'pchilik tomonidan qabul qilingan bo'lsa-da, bu qarash o'sha paytda ingliz, Amerika va Fransiya inqiloblari tajribasidan kelib chiqqan holda yangi edi. Hokimiyatlarining bo'linishi XVII asr o'rtalaridagi Angliya fuqarolar urushi davrida aralash hukumat nazariyasi asosida ishlab chiqilgan. Undagi qirolning cheklanmagan hokimiyati esa jamiyatning davlat qurilish asoslarini demokratik nuqtayi nazardan qayta qurish masalasini yuzaga keltirdi. Bu kabi savollar va ijtimoiy amaliyotning mana shu nuqtadagi ko'rsatkichi Angliya jamiyatida asosiy demokratik qadriyat hisoblanadigan konstitutsionalizmning haqiqiy rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mana shu davrda Angliyada aralash hokimiyatning qirol va parlament ko'rinishi vujudga keldi [6] va bu keyingi asrlarda dunyo hamjamiyatining ilg'or qismini ilhomlantirdi. Bu davr konstitutsionalizm an'anasining tarixiy yangilanishini boshlab berdi. Keyingi asrlarda fransuz ma'rifatparvari Monteskyening "Qonunlar ruhi" asari 11-kitobi VI bobi konstitutsionalizm ta'limotining aniq bayonini taqdim etdi, undagi g'oyalar aralash hukumat tizimidan kelib chiqqan o'ziga xos belgilarni o'zida mujassam etgan edi.

Britaniya parlament tizimi va undagi monarx, lordlar va quyi palataning tegishli rollarini tahlil qilish, funksional bo'linish, alohida sud hokimiyatining mavjudligi dastlabki paytda hozirgi demokratik shakllardan ancha farq qilgan. Faqat AQSh Konstitutsiyasi loyihasini ishlab chiqish va uning atrofida gi bahs-munozaralar, ayniqsa, Federalistik yozishmalar hujjatlarida o'z aksini topgan –

bu doktrina AQSh Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan o'zining yetuk, ancha sayqallangan shaklida paydo bo'ldi [7].

Konstitutsionalizm davlat mansabdor shaxslarining o'zboshimchalik bilan qabul qiladigan hukmi yoki oddiy qarori bilan hukmronlik qilishdan farqli o'laroq, qonun ustuvorligi g'oyasining maqsadga muvofiqligini ifodalaydi. Zamonaviy ommaviy huquq va davlat qurilishi asoslari bilan bog'liq bo'lgan adabiyotlarda konstitutsionalizm konsepsiyasining markaziy elementi quyidagilardan iborat:

1) Siyosiy jamiyat hukumat amaldorlari o'zlari xohlagan tarzda o'zlari xohlagan narsani qilish huquqiga ega emaslar;

2) ular hokimiyatning cheklanishiga ham, jamiyatning oliy konstitutsiyaviy qonunida belgilangan tartiblarga ham rioya qilishlari shart. Demak, konstitutsionalizmning tamal toshi yuqori qonun ostidagi cheklangan hukumat tushunchasidir.

Kanadalik faylasuf Vil Valuxov [8] tomonidan taqdim etilgan fikrga ergashadigan bo'lsak, konstitutsionalizm o'zida mujassam etgan g'oya shundan iboratki, hukumat o'z vakolatlarini qonuniy ravishda cheklashi kerak va uning vakolatlari chegarasi ushbu cheklovlarga qanchalik darajada rioya qilishiga bog'liq. Bu g'oya o'zi bilan nafaqat huquqshunos olimlarni, balki davlatning huquqiy va falsafiy asoslarini o'rganishga ish-tiyoqmand har bir kishini qiziqtirgan ko'plab mushkul savollarni ochib berdi.

Konstitutsionalizmning ahamiyati

Konstitutsionalizm – demokratik shakldagi har qanday mamlakat yoki davlatning boshqaruvi asoslarini belgilaydigan siyosiy-huquqiy atama. Uning ahamiyatini har qanday jihatdan e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Konstitutsionalizmning asosini tashkil etgan ba'zi muhim fikrlar quyida keltirilgan:

1) konstitutsionalizm davlatning o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishiga to'sqinlik qiluvchi normalar to'plamidir;

2) konstitutsionalizm odamlarning erkinligi va adolatga ega bo'lishini ta'minlaydi, bu amaliyot O'zbekiston kabi demokratik mamlakat uchun juda muhimdir;

3) konstitutsionalizm davlat yoki davlat ichida to'g'ri boshqaruvni ta'minlaydi, chunki u davlat hokimiyatidan va vakolatlardan ortiqcha foydalanishni cheklaydi, shu bilan birgalikda, demokratik huquqlarni va erkinliklarni himoya qiladi;

4) konstitutsionalizm rivojlanayotgan mamlakatlarda yaxshi rivojlanish va farovonlikka erishish uchun yordam beradi, chunki uning mohiyati huquqlar hamma uchun teng ekanligini va hammaning qonun oldida tengligini ifodalaydi;

5) konstitutsionalizm davlatning o'z vazifalarini amalga oshirishda har bir inson o'zining qadr-qimmatiga ega ekanini ta'kidlaydigan muayyan qoidalar va ko'rsatmalarga asoslanishini ta'minlaydi [9].

Tadqiqot natijalari tahlili

Bu kabi fikrlarning dolzarbligi shundaki, insonning tadrijiy rivojlanishi, unga mutanosib ravishda davlat va huquqni tarixiy davrdan to hozirgi kunga qadar modernizatsiya qilish masalasi, albatta, adolat hamda odilona boshqaruv qanchalar muhim ekanini yodga solib turadi. Konstitutsionalizm va uning mohiyati tarixiy hamda xalqaro amaliyot natijasida quyidagi asosiy elementlarni o'zida mujassam etgan asosiy kategoriyaga aylandi:

- xalq hokimiyatchiligi va uning suvereniteti;

- hokimiyat vakolatlarining bo'linishi (nazorat va muvozanat);

- mas'uliyatli va yuridik javobgarlik mavjud bo'lgan hukumat;

- qonun ustuvorligi;

- mustaqil sud tizimi;

- shaxs huquqlarini hurmat qilish;

- harbiylar ustidan fuqarolik nazorati;

- qonun bilan boshqariladigan hokimiyat va sud nazorati.

Haqiqiy demokratik davlatlar uchun kons-

titutsiyalar jamiyat boshqaruvida lozim bo'lgan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy tuzilmalarni belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Shuning uchun konstitutsiyaviy qoidalar asosiy yoki tayanch qonun hisoblanadi. Zamonaviy davlatlarning tuzilishi hukumatning ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud organlariga bo'linishi bilan shakllantiriladi hamda bu organlar va ularning vakolatlarini ajratish kerak, degan umumiy qabul qilingan tushunchani vujudga keltiradi. Albatta, hokimiyatlarning bo'linishi bu organlarning yolg'iz ishlashini anglatmaydi, aksincha, ular o'zaro bog'liq holda ishlaydi, balki o'z avtonomiyalarini ham saqlab qoladi. Bularning barchasini birgalikda konstitutsionalizm tushunchasi deb atash mumkin. Boshqacha aytganda, konstitutsionalizm – hukumatning vakolatlari cheklangan bo'lishi kerakligi va bu vakolatlar ushbu cheklovlariga rioya qilinishiga bog'liq, degan g'oyadir. Konstitutsiya vakolatlar va ularning chegaralarini belgilab beruvchi huquqiy hamda axloqiy asosdir. Bu doira xalq irodasini ifodalashi kerak va shuning uchun bunday muhim jarayonga rozilik orqali erishilishi kerak edi [10].

Konstitutsionalizm keng ma'noda hukumat hokimiyati qonunlar yoki konstitutsiya to'plami bilan belgilanadi, degan ta'limotdir. Garchi konstitutsionalizmga ba'zan cheklangan hukumatning sinonimi sifatida qaralsada, bu faqat bitta talqin va har qanday holatda tarixan eng mashhuri emas. Umuman olganda, konstitutsionalizm o'zboshimchalik bilan harakatlanayotgan hukumatning oldini olishga qaratilgan choralarni anglatadi.

Mustahkamlangan, huquqqa asoslangan va adolatli (ya'ni sudda ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan) konstitutsiya barqaror va hisobdor hukumatni ta'minlaydi, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarini belgilangan qoidalar va tartiblarga muvofiq faoliyat yuritishga majbur qiladi [11]. Eng muhimi, bu ularning shaxsiy huquqlarini ma'muriy qulayliklarga, noto'g'ri qarashlarga yoki qisqa muddatli daromadlarga qurbon qilishi-

ga yo'l qo'ymaydi. Bir necha tahlilchilarning fikricha, amalda bo'lgan har qanday konstitutsiyaviy hukumat demokratiyasiz ham, konstitutsiyaning o'zi bilan chinakam zolim hukumatni tiyib turishiga ishonadi. Shunday qilib, huquqiy konstitutsiya ishlaydigan siyosiy konstitutsiyaning tuzatuvchisi, hatto asosi sifatida ko'riladi. Shunga qaramay, u o'ziga yuklangan vazifani samaraliroq yoki qonuniy ravishda bajaradimi, bu bahsli masala bo'lib qolmoqda.

Demokratik hukumatlar ba'zan favqulodda vaziyatlarga haddan tashqari munosabatda bo'lishga, xavfsizlik uchun fuqarolik huquqlarini qurbon qilishga va saylovda muhim bo'lgan, ammo vakili bo'lmagan ozchiliklarga yoki ko'pchilikning populistik tuyg'ularini poymol qilishga moyil bo'ladilar. Bunday tazyiqlardan himoyalangan sud qarorlari konstitutsiyaviy qonun bilan bog'langan holda xolisroq bo'lishi mumkin. Sudlarga murojaat qilish siyosiy sohaga kirishning muqobil variantini taklif qiladi, bular o'rtasidagi bog'liqlik ham mana shu nuqtada kesishadi va konstitutsionalizm g'oyasining amalga oshishiga yordam beradi. Agar konstitutsiya asosidagi tamoyillar umumbashariy va abadiy bo'lsa, u har qanday va barcha holatlarga nisbatan qo'llanishi mumkin. Bu fikrdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, konstitutsionalizm zamondan zamonga bema'lol moslashishi mumkin hamda davlat va jamiyat qurilishining eng muhim tarmoqlarini, insonning asosiy huquq va erkinliklarini belgilab beradi. Ommaviy kelishuvga murojaat qilish bu muammoni hal qiladi va davlat, jamiyat, inson o'rtasidagi munosabatning adolat hamda halollik bilan mavjud bo'lishini ifodalaydi [12].

Huquqiy konstitutsionalizm nafaqat sobiq avtoritar rejimlarda, balki siyosiy konstitutsionalizm shu paytgacha yakka o'zi hukmronlik qilib kelgan Buyuk Britaniya va Hamdo'stlik mamlakatlarida ham o'zini namoyon qilgani sababli, ayrim olimlar kamchiliklarni ta'kidladilar. Huquqiy konstitutsionalizm tan-

qidchilari uning o'z pozitsiyalariga siyosiy qiyinchiliklardan qo'rqib, gegemon guruhlar tomonidan kiritilganini ta'kidlaydilar. Ular-ning ta'kidlashicha, siyosiy konstitutsionalizm ko'pchilikning kengaygan va tengroq ijtimoiy ne'matlar haqidagi qarashlariga javob bersa-da, huquqiy konstitutsionalizm shaxsiy mulk va boshqa huquqlarga aralashgani sababli bunday islohotlarni taqiqlab qo'ygan. Albatta, muhim istisnalar mavjud bo'lib, Qo'shma Shtatlardagi Uorren sudining (1953–1969) progressiv qarorlari Lochner davridagi (1897–1937) erkin bozor qarorlariga aniq qarama-qarshilikni taklif qiladi. Huquqiy va siyosiy konstitutsionalizmning afzalliklari bo'yicha kelishmovchilik XXI asr siyosiy nutqining markaziy elementi bo'lib qolmoqda [13].

Xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, konstitutsionalizm – mamlakatni yaxshiroq boshqarishga imkon beradigan va mamlakat ichidagi vakolatlardan ortiqcha foydalanishni cheklaydigan xatti-harakatlar guruhidir. U xalq hokimiyati va jamiyat farovonligi uchun ishlaydi. Konstitutsiya va konstitutsionalizm tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, biri boshqasiz yashay olmaydi. Biroq ular o'z nuqtayi nazaridan farq qiladi [14]:

birinchisi, yozma qoidalar va prinsiplarni belgilaydi;

ikkinchisi esa oddiy yozma hujjatdan ko'proq narsani ta'kidlaydi.

Konstitutsionalizm tushunchasi an'anasi barcha amaldagi demokratik davlatlarda mavjud va rivojlanib bormoqda. Biroq yillar davomida hukumatlar fuqarolarga foyda keltirish o'rniga, davlat apparatidan o'z manfaati uchun foydalanishni o'rgandilar. Hukumat siyosatni ishlab chiqishda korporativ manfaatlarga "orqa eshiklar" kiritish orqali siyosatni ishlab chiqish jarayonini buzdi, uning asosiy maqsadi aholining farovonligini ta'minlash bo'lgan adolatli siyosat yuritishni unutib qo'ydi. Jismoniy shaxslarning huquqlarini ta'minlash uchun qabul qilingan hujjatdan ko'p asrlar davomida ularni bo'g'ish va huquqlardan mahrum qilish uchun foydalanildi.

Muammo shundaki, konstitutsiya va konstitutsionalizm o'zini o'zi talqin qila olmaydi va uni hokimiyatga ega bo'lgan odamlar talqin qilishlari kerak [15]. Konstitutsionalizm tayanchi bo'lgan institutlarning mamlakat siyosiy hayotiga keng kirib borishi esa bunday muammolarning oldini oladi va yakunda insoniyatning asriy orzularini ro'yobga chiqarishda asosiy rolni o'ynaydi.

REFERENCES

1. Don E. Fehrenbacher, *Constitutions and Constitutionalism in the Slaveholding South*. University of Georgia Press publ., 1989. p. 1.
2. Dinan John J. *The American State Constitutional Tradition*. Press of Kansas publ., 2006.
3. Levy L. *Encyclopedia of the American Constitution*. Gerhard Casper, *Constitutionalism*, 1986, vol. 2, p. 473.
4. Scott G. *Controlling the State: Constitutionalism from Ancient Athens to Today*. Harvard University Press, 1999, p. 4.
5. English translation of Magna Carta. The British Library, 2019.
6. Hamilton W.H. "Constitutionalism". Edwin R.A. Seligman, et al. (eds). *Encyclopedia of the Social Sciences*. New York, Macmillan publ., 1931, p. 255.
7. Stanford Encyclopedia of Philosophy. "Constitutionalism". 2001.
8. Gebeye. *A Theory of African Constitutionalism*. Oxford University Press, 2021.

9. Möller K. The Global Model of Constitutional Rights. Oxford University Press, 2012.
10. Sandefur T. Constitutionalism. Hamowy, Ronald (ed.). The Encyclopedia of Libertarianism. Thousand Oaks, CA: SAGE; Cato Institute publ., 2008, pp. 100–103. doi: 10.4135/9781412965811.n65.
11. The Social and Political Foundations of Constitutions Foundation for Law, Justice and Society programme.
12. Sempill J. The Rule of Law and the Rule of Men: History, Legacy, Obscurity. *Hague Journal on the Rule of Law*, 12 vol. (3), pp. 511–540. doi:10.1007/s40803-020-00149-9. S2CID 256425870.
13. Snowiss S. Judicial Review and the Law of the Constitution. Yale University Press, 1990, pp. 41–42.
14. Hallam H. The Constitutional History of England, vol. 1, p. 441.
15. Madison J. His remarks introducing the Bill of Rights, 8 June 1789, *Annals*, 2009, no. 1, pp. 424–450.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 6-SON

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ergashev Ikrom

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 7.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 131.

TDYU tipografiyasida chop etildi.